



SUN'IY INTELLEKTNING INGLIZ TILI KO'NIKMALARINI O'QITISHDAGI SAMARADORLIGINI OSHIRISH MEXANIZMLARI

Baxtiyorova Durdona Ixtiyorovna

Buxoro innovatsion ta'lim va tibbiyot universiteti assistenti

Ibrohimova Ferangiz Farrux qizi

Buxoro innovatsion ta'lim va tibbiyot universiteti talabasi

ixtiyorovnadurdona@gmail.com

+998931370101

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14676438>

Annotatsiya.

Ush bu maqola bugungi kunda ommalashib borayotgan texnika mo'jizasi deb qaralayotgan sun'iy intellekt va uning imkoniyatlari xususan xorijiy tillarni o'rganishdagi ahamiyati va afzalliklari yoritib beriladi (ingliz tili misolida)

Kalit so'zlar: sun'iy intellekt, ta'lim texnologiyalari, ingliz tili, innovatsion metodlar, raqamli ta'lim, masofaviy o'qitish, onlayn platforma.

Аннотация

Данная статья посвящена искусственному интеллекту, который сегодня рассматривается как чудо современной техники. Особое внимание уделяется его возможностям, а также значимости и преимуществам в изучении иностранных языков, на примере английского языка.

Annotatsion

This article focuses on artificial intelligence, which is increasingly viewed as a marvel of modern technology. Particular attention is given to its capabilities, as well as its importance and advantages in learning foreign languages, using English as an example.

Keywords: artificial intelligence, educational technology, English language, innovative methods, digital education, distance learning, online platforms.

Bugungi kunda jahon miqyosida ta'lim tizimining raqamlashuvi jadal sur'atlarda rivojlanib bormoqda. Zamonaviy texnologiyalar, xususan sun'iy intellekt tizimlari ta'lim jarayonining ajralmas qismiga aylanib ulgurdi. O'zbekistonda ham raqamli ta'limni rivojlantirish, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish bo'yicha keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Sun'iy intellektning ingliz tili o'qitish jarayonidagi samaradorligini oshirish uchun quyidagi metodlardan foydalanish tavsiya etiladi:

1.Intellektual o'qitish metodlari: bunda dastlab o'rganuvchining bilimi ya'ni o'rganilayotgan xorijiy til doirasidagi bilimi tekshiriladi(til ko'nikmalarining 4 ta sharti: o'qish , yozish, tinglab tushunish, gapirish va insho yozish).til o'rganuvchining bilim darajasi aniqlangandan so'ng uning darajasiga





mos sun'iy intellekt qurilmasini tanlash va uni o'rganuvchining darajasiga sozlash. Masalan: Duolingo, Rosetta Stone sun'iy intellekt qurilmalari.

2.Yakka tartibda ta'lim dasturlari: individual o'quv rejasini shakllantirish, o'rganuvchining qiziqishlari asosida mavzular tanlanadi, til o'rganishiga undovchi elementlar tuzilgan dasturga kiritiladi, har bir 20 daqiqa orasida qiziqarli o'yinlar asosida o'rganilgan bilim(masalan yangi so'zlar)mustahkamlanadi.


3.Til o'rganish davrini monitoringlashtirish: bunda o'rganish boshlangan sana belgilab qo'yiladi va ma'lum bir sanada ma'lum bir darajaga yetish belgilanadi. Har kunlik dars soati belgilanadi. Masalan bir kunda 2 soatlik dars rejimi shakllantiriladi. Bunda o'rganuvchining dars qilish esidan chiqib qolmasligi uchun ovozli eslatmalar o'rnatib qo'yish mumkin. Bir kunda yangi 20 dona so'z o'rganish belgilab qo'yilgan bo'lsa shu miqdordagi so'zlar yodlanib sun'iy intellekt tomonidan tuzilgan test yoki boshqa turdagi vazifa bajarilmasa yangi mavzuga o'tish qulf(block)lab qo'yilishi mumkin.

4. Nutqni rivojlantirish va xorijiy tilda ravon gapirish: nutqni rivojlantirish uchun avvalo til o'rganuvchi xorijiy tildagi nutqlarni tinglash ko'nikmalarini shakllantirishi zarur. Buning uchun sun'iy intellekt tomonidan matnlar o'qib berilishi mumkin. Masalan o'rganuvchi o'zida oldindan mavjud bo'lgan matnni sun'iy intellekt xotirasiga joylashtiradi (yozma shaklda yoki suratga olib) va tilni tanlab o'qi (read) buyrug'ini beradi. Shundan so'ng o'rganuvchi o'zida mavjud bo'lgan matnni ham eshitishi ham kuzatishi mumkin. O'rganishning yuqori bosqichlarida sun'iy intellekt bilan haqiqiy suhbatdosh singari suhbatlashishi (ChatGPT4) yoki matnlar o'qib berib talaffuzi qay darajada ravon va to'g'ri chiqayotganini tekshirishi mumkin(Duolingo).

XULOSA

Sun'iy intellekt texnologiyalarini ingliz tili o'qitish jarayoniga joriy etish zamonaviy ta'limning muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Ushbu texnologiyalar faqatgina ta'lim samaradorligini oshirmasdan, balki o'quv jarayonini yangi, zamonaviy bosqichga olib chiqadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, sun'iy intellekt yordamida til ko'nikmalari 40-60% tezroq rivojlanishi, xatolar soni 30% ga kamayishi va talaffuz sifatining 45% yaxshilanishi mumkin.

Shuningdek, sun'iy intellektning ta'lim jarayonida vaqt tejamkorligini oshirish, o'qituvchilarning administrativ yukini kamaytirish va baholash jarayonlarini avtomatlashtirishda alohida ahamiyatga ega ekanligi aniqlandi. Bu,





o'z navbatida, o'qituvchi va o'quvchilarning o'zaro aloqalarini kuchaytirib, bilim olish jarayonini yanada interaktiv va qiziqarli qiladi.

Kelgusida sun'iy intellekt texnologiyalarini ta'limda qo'llashni yanada kengaytirish uchun quyidagilarni amalga oshirish tavsiya etiladi. Kelajakda sun'iy intellekt texnologiyalari ta'lim sohasidagi innovatsion o'zgarishlarning asosiy yo'nalishiga aylanishi va global miqyosda ta'lim sifatini yanada yaxshilashga xizmat qilishi kutilmoqda. Shu bilan birga, bu texnologiyalar orqali nafaqat individual yondashuvni takomillashtirish, balki yangi, barqaror ta'lim modelini shakllantirish uchun keng imkoniyatlar yaratiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Raqamli ta'limni rivojlantirish konsepsiyasi" to'g'risidagi Farmoni. 2023-yil.
2. Ahmedov, B. & Karimov, S. (2023). "Zamonaviy ta'limda sun'iy intellekt tizimlari". Toshkent: Fan va texnologiya.
3. Johnson, M. & Smith, P. (2023). "Artificial Intelligence in Language Education". Educational Technology Review, 18(4), 156-170.
3. Communication culture skills of primary students in English language classes, Qo'ldosheva Nigoraxon Avezmurodovna, Spectrum Journal of Innovation, Reforms and Development Volume 28, June - 2024 ISSN (E): 2751-1731. Website: www.sjird.journalspark.org
4. The methodological principles for developing environmental education in the republic of Uzbekistan Nargiza Dilova*, Manzura Kosimova, Vazira Raxmanova¹, Maftuna Hotamova, and Nigora Kuldosheva, E3S Web of Conferences 538, 05001, (2024)
<https://doi.org/10.1051/e3sconf/202453805001>

